

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмудовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.
Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арпбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Каримов Улғабек Темирбаевич, DSc
Қурбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отабаевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуратович, б.ф.д., проф.
Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Рўзметов Дилишод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилов, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.
Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинов, б.ф.д., акад.
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (112), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 291 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages	6
Abduvahabova M.A. Ingliz va o'zbek folklor diskursida genderlikning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	9
Absamatova G.B. Surdo tarjima sinxron tarjimaning noverbal shakli sifatida	13
Aminova N.I. Shukur Xolmirzayevning "Ko'k dengiz" hikoyasida inson ma'naviy dunyosi tahlili	16
Ataboyev I. Ta'na-dashnom nutq strategiyasi muvaffaqiyatining ekstralingvistik shartlari	19
Bakayeva M.K., Astanova H.Z. The artistic modeling of personality in dreiser's works: capturing motives and assessing characters	23
Bazarova X.E. Jamol Kamol she'riyatida so'z jilosi	29
Bekova N., Achilova D.F. Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy hayoti va adabiy merosi haqida	32
Boboqulova Sh.B. Kirish so'zlarning tillarda qo'llanilishi va ularning pragmatik xususiyatlari	35
Boymatova D.B. Maqollarda muqobilsiz leksikaning ishlatilishi	38
Erkinov S.E., Saidova M.A. Unlocking global communication: the art and impact of simultaneous translation	41
Fayziyeva A.A., Raximova S.I. Ingliz tiliga xos konseptual metaforalar tahlili	44
Gadoeva M.I., Chullieva M. The old man and the sea, the battle of life for all human kind	46
Gadoeva M.I., Ibragimova M. Linguocultural analysis of imperative mood in uzbek and english	49
Gadoeva M.I., Mirzaeva M.Z. Expressing desire through lexical items in english and uzbek languages	51
Hotamova M.M. Ingliz toponimlarining lingvokulturologik tahlili	53
Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida quyosh timsoli	57
Jo'rayev Sh.B. Tilshunoslikda o'zlashmalarning tasniflanishi	59
Karimova Sh. Modernizm yo'lidagi izlanishlar	62
Khayatova Z.M. Unveiling the language secrets: paraphrasing uzbek texts with software	67
Khodjaeva D.I., Ergasheva M.B. About the branch of onomastics that studies celestial objects	70
Kobilova N.S. Common features of a good language learner	73
Madraximova I.B. Shavkat Rahmon she'riyatida tun xronotopi	75
Mamarajabova I.F. "Vaqt" konseptini ifodalovchi birliklarning xususiyatlari	78
Maxsudova N.A. Konseptlarning leksikografik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari	81
Mirzaboyeva N.M. Nemis va o'zbek maqollarida ismlar	85
Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli va uning g'oyaviy-falsafiy talqini	88
Muqimova Z.R. Tabiat hodisalarini atovchi nomlarning lingvomadaniy xususiyati	91
Muratova G. G'afur G'ulom hikoyalarida qahramon xarakteri tasviridagi rang-baranglik	95
Murodjonova L.F. The ratio of non-verbal and verbal paralinguistic tools used in speech activity	98
Muxtoraliyev B.I. Anvar Obidjonning badiiy mahorati	101
Navruzova N.X. The position of connotative meaning in the semantic structure of a word	104
Niyazova M.X., Tuxtayeva M.A. Tog'ay Murodning asar personajlari nutqida maqol qo'llash mahorati	107
Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining shakllanishidagi ilk manbalar va uning yozuvga ko'chishi	109
Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining og'zaki versiyalari	112

- a) xorijiy tildagi bosma manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon tomonidan xorijiy tildagi ba'zi bir leksemalarni o'zlashtirish;
- b) yozma manbalarining mualliflari asarlarida xorijiy ibora yoki terminlardan foydalanishi orqali.

O'zbek tilidagi 'anglisizmlar' bo'yicha tadqiqot olib borgan Abdulla Xudayqulov rus va o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan o'zlashmalarni stilistik roli jihatdan quyidagi guruhlariga ajratgan:

- a) To'g'ridan to'g'ri o'zlashtirmalar – donor tildagi shaklini (fonetik va struktur jihatdan) retseptient tilda ham saqlab qolgan so'zlar (klub, vokzal, tramvay)
- b) Internatsializmlar – qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda bir xil semantikaga ega bo'lgan xalqaro terminlar (biznesmen, marketing, reyting)
- c) Varvarizmlar – xorijiy tildan kirib kelgan so'z yoki nutq birligi bo'lib, retseptient tilda aynan ekvivalentlikka ham ega (*ser-* janob, *sekyureti* – qo'riqchi, *bodigard* – tansoqchi)
- d) Ekzotizmlar – boshqa tilli xalq madaniyatidagi ma'lum bir tushunchaning boshqa tilga kirib kelishi (*lord, dollar, funt*)
- e) Vkrapleniyalar – xorijiy so'z va jumalardan so'zlovchiga va auditoriyaga ma'lum bo'lgan xorijiy so'z va jumalardan foydalanish (*city tour, DVD, VIP*)
- f) Kalkalar – tilga xorijiy leksik birliklarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish (*cold war* – sovuq urushi, *arms race* – qurollanish poygasi, *железная дорога* – temir yo'l) [11]

Xulosa o'rinda qayd etish mumkin, o'zlashma so'zlar klassifikatsiyasi ingliz, nemis va rus tilshunoslar tomonidan turlicha yondashuvlar bilan o'rganilgan. O'zbek tilidagi o'zlashma qatlam esa leksikologiya bo'limining ichida umumiy tasniflanish orqali yoritilgan bo'lib, chuqur va keng tahlil qilinmagan. Bu borada so'ngi yillarda bir necha tilshunoslarimiz izlanishlar olib borayotganiga qaramay, ochiq qolayotgan jihatlar juda ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hock H.H, Joseph B.D, Language History, Language Change and Language Relationship: An Introduction to Historical and Comparative Linguistics, Mouton de Gruyter, 2009. -P. 241-242.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language, Cambridge University Press, 2010. -P. 332.
3. Ярцева В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. — С. 709.
4. Bloomfield L. Language, The University of Chicago, 1984, B. 444-511
5. Haugen, E. The analysis of linguistic borrowing. Language, 1950, -P. 210-331.
6. Stepanova M. D. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache: (Лексикология современного немецкого языка): учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведения. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. -С. 69-70.
7. Будагов Р. А Введение в науку о языке: Учебное пособие. – М.: Добросвет-2000, 2003. -С. 132-134.
8. Крысин Л.П. О русском языке наших дней // Изменяющийся языковой мир. — Пермь, 2002.
9. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi, O'zbekiston SSR "FAN" Nashriyoti, Toshkent, 1972. -B. 23-39.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi Adabiy O'zbek Tili (darslik), Toshkent, 2006. -B. 105-111.
11. Худайкулов А. Э. Английские заимствования в деловых документах русского и узбекского языков: диссертация. – М.: Ташкент, 2020. -С. 38-105.

UO'K: 82.02

MODERNIZM YO'LIDAGI IZLANISHLAR

Sh. Karimova, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada modern adabiyot tushunchasi, uning kelib chiqishi va shakllanishi jahon adabiyoti misolida tadqiq etilgan. Ayrim o'rinlarda o'zbek va turk adabiyotida modern asarlarning xususiyatlari va namunalari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. XX asr adabiy tanqidchiligidagi modernizm termini atrofidagi bahs-munozaralar o'rganilib, ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: modernizm, modern adabiyot, adabiy yo'nalish, termin, turk adabiyoti, o'zbek adabiyoti.

Аннотация. В данной статье исследуется понятие современной литературы, ее истоки и становление на примере мировой литературы. Особое место в узбекской и турецкой литературе занимают размышления об особенностях и образцах произведений модернизма.

В литературоведении XX века споры вокруг термина модернизм изучались и анализировались с научной точки зрения.

Ключевые слова: модернизм, современная литература, литературное направление, термин, турецкая литература, узбекская литература.

Abstract. *In this article, the concept of modern literature, its origin and formation are studied on the example of world literature. There are also some discussions on the features and samples of modern works in Uzbek and Turkish literature. In the literary criticism of the XX century, the controversy surrounding the term modernism was studied and scientifically analyzed.*

Key words: *modernism, modern literature, literary movement, term, Turkish literature, Uzbek literature.*

Insoniyat eng qadimgi davrlardan olamni idrok etish, borliqning zohiriy va botiniy sir-asrorlaridan voqif bo'lishga intilgan. Suqrotndan boshlangan ushbu yo'l XX asrlarga kelib aql – inson mohiyatini belgilovchi, ya'ni rivojlanayotgan dunyo bashariyat uchun, fan va texnika xalq uchun degan ma'rifatparvar dunyoqarashga asoslangan edi. XX asrga kelib markazi Yevropa sanalgan dunyo tartibga solingan bir mexanizm singari harakatlanar edi. Bu davrga kelib Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni kuchayib, global ravishda qishloq aholisining shaharga ko'chishi kuzatilayotgan edi. Afsuski, bu jarayon tarix sahifalarida yozilganidek silliq kechmagan, natijada maishiy, madaniy va siyosiy to'qnashuvlar yuzaga kelgan. O'zgarishlar jarayoni esa asrlar davomida shakllanib kelayotgan tasavvurlar, hayot tarzi va mehnat faoliyati ko'plab insonlar uchun tubdan yangilangan edi. Yangi qadriyatlarga asoslangan va jadal rivojlanayotgan hayot insonlarni jamiyatdan ajralishga, o'zini undan chetlatishga, o'z qobig'iga o'ralib qolishiga sababchi bo'ldi. Dunyoni larzaga solgan ikkinchi jahon urushi bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Urushlar inson siyosat va tuzum qarshisida kuchsiz ekanligini, dunyo faqat siyosiy manfaatlar ustiga qurilganini, fan va texnika esa insonga qarshi qurol bo'la olishini amalda ko'rsatib bergan edi. Bunday muhit tinkasi qurigan insonlarni yolg'izlikka, jamiyatdan uzilishiga yana bir turtki bo'ldi. Bu voqealar pirovardida insoniyatning uzoq asrlar davomida o'rganib, e'tiqod qilib kelayotgan qadriyatlari sekin-astalik bilan yangi ko'rinishga ega bo'la boshladi. Bu jarayonda inson ruhiyati, uning voqelikka nisbatan munosabati, uning qalb analizi kabi oldin ahamiyatsiz sanalgan xususiyatlar falsafa, adabiyot va endigina shakllanayotgan ruhshunoslik ilmining markaziy obyektiga aylana boshladi.

Endilikda modern deb atala boshlagan va sanoat kapitalizmi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bu o'zgarishlar tabiiy ravishda siyosiy, maishiy va madaniy hayotda turli xil o'zgarishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan modernizm termini yuqorida keltirilgan jo'grafiyalarda bir qancha siyosiy va maishiy o'zgarishlar natijasi o'laroq kelib chiqdi. Adabiyotshunoslik lug'atlarida bu terminga shunday ta'rif beriladi: **“Modernizm** (fr. moderne — eng yangi, zamonaviy) — XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi” [5:176]. Modernizm atamasining asli modern “yangi” degan ma'noni anglatishi, har qanday yangicha usuldagi san'at asari modernizm yo'nalishida degan noto'g'ri xulosaga olib kelishi kerak emas. Tasviriyy san'at, me'morchilikda turli xil tamoyillarga asoslangan modernizm, adabiyotda ham o'ziga xos shakliy va mazmuniy belgilarga ega. Faqat klassik adabiyotda bo'lgani kabi aniq chegaraga va shakl-shamoiilning yo'qligi adabiyotshunoslar va kitobxonlar o'rtasida bu oqim bilan bog'liq qarama-qarshi fikrlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Jahon adabiy tanqidi tarixiga nazar solar ekanmiz modernizmning qanchalik siyosiy va iqtisodiy tazyiq ostida aks ettirilganining guvohi bo'lamiz. Aslini olganda esa modernizm oqimi u haqida bildirilgan ba'zi salbiy va noo'rin fikrlardan ancha chuqurroq va teranroq mohiyatga ega. Modernizmning tub mohiyatini tushunishda esa modernizmni global hodisa sifatida emas, balki parchalarga bo'lgan holatda siyosiy, iqtisodiy va ma'daniy omillarni hisobga olib dunyo kesimida nazar solishimiz darkor. Bu sohada albatta G'arbiy Yevropa maktabini o'rganishdan boshlamoq maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, ko'plab tadqiqotlarda modernizm XX asrlarda aynan Fransiyada vujudga kelgani iddao qilinadi. Uning rivojlanish davri esa birinchi jahon urushi yakunlaridan boshlab ikkinchi jahon urushi so'ngi yillarini qamrab oladi

(1917-1945). Bu davr G'arbiy Yevropa adabiyotida "Yo'qotilgan nasl" (lost Generation) ikki urush orasida 18 yoshini qarshilagan, aslida an'anaviy hayot uchun tayyorlanib keyinchalik esa keraksiz bo'lib qolgan nasl adabiyotini qamrab oladi [1:272]. Ushbu davrda Albert Kamyu, Erik Remark, Frans Kafka, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey kabi yozuvchilar ijod qilgan bo'lib, ularning ijodida yo'qotilgan naslning fojeasi yorqin aks ettiriladi. Modernizmga esa biz ko'nikkandek an'anaviy adabiyotga qarshi turuvchi adabiyot sifatida emas, balki insoniyat tarixida mavjud oqimlarning mantiqiy davomi sifatida qaralgan. Faqat G'arbdagi modernizm kurtaklari va u bilan bog'liq bahs-munozaralar bundan ancha oldin boshlangan bo'lib ular orasida an'anaviy yo'nalishlarga nisbatan tanqid tarzidagi fikrlar ham mavjud: bu asarlarni 30 yildan keyin hamma unutib yuboradi. (Golsuorsu), M. Prust kabi tanqidchilar o'z asarlari va tadqiqotlarida ochiq ravishda nega realizm voqelikni modernizmchalik yoritib bera olmasligi to'g'risidagi qarashlari shular jumlasidan. Ayrim tadqiqotlarda esa M. Prustning ijodkor qanchalik kam o'ylasa, shunchalik haqiqatga yaqin bo'ladi, chuqurroqqa sho'ng'ishdan cho'chimang haqiqat tubda kabi fikrlari realizmni yuzaki va haqiqatni ochib berolmaydigan oqim sifatida ayblab ko'rsatadi. "Sent-Byovga qarshi" maqolalar to'plamida zamonasining ko'plab daholarining ba'zi ayblarini fosh qilib, yetarli darajada qadrlanmagan ijodkorlarni suv yuzasiga chiqaradi [3:202]. Bu fikrlar modernizm realizmning dushmani emas, degan fikrni aniq bildirishimizga to'sqinlik qiladi. Bu fikrlar modernizm endi shakllana boshlaganda an'anaviy oqimlarga qarshi qo'yilgan bo'lsa, oqim o'zining yuqori cho'qqisiga yetganda G'arbda 1960-1970 yillarda "yangi tanqid maktabi shakllanadi" va modernizm va realizm qarama-qarshiligi emas, balki modern adabiyotning elitarligi (xos) bo'lib qolayotgani asosiy masala sifatida ko'riladi. Bu davrga kelib yo'qotilgan nasl asarlarining g'oyasi kapitalistik g'oyalarga mutanosibli sababli Yevropada va G'arbda modernizmning keng targ'iboti-tashviqoti bilan birga, alohida o'z oqimlari aro tortishuvlar ham bahs-munozaralar obyektiga aylanadi. Modern adabiyoti va uning tanqidi universitetlarda asosiy fanlar qatoridan joy oladi va modern adabiyotining "klassik" tamoyillari yaratiladi [8:4-5]. Albatta ushbu qarashlar mafkuraviy ideallardan xoli va haqqoniy deb bo'lmaydi. Sababi G'arbda modernizm har qancha tabiiy jarayonlar mahsuli bo'lsa ham, modernizmni qo'llab-quvvatlovchi asosiy kuch sanoat-kapitalizmining asosiy g'oyalarini aks ettirishga qaratilgan bo'lganligini unutmaslik kerak.

Hozirgi kunga kelib esa G'arbdagi mashhur tadqiqotchilardan Umberto Eko singari olimlar o'z ma'ruzalar to'plamida yana eski munozaralarga (realizm-modernizmga) teginib o'tadi, "men hayot "Uch Mushketyor"dan ko'proq "Uliss"ga ko'proq o'xshaydi deb yozmoqdaman", "badiiy matn hayotning to'g'ridan-to'g'ri aksi emas, "metafizik uydirma, reallikdan qulayroqdir" deb bildirgan fikrlari bilan modern adabiyotini yana realizmga nisbatan ko'rishimizga undaydi [6:192].

Yuqorida keltirilgan "yangi tadqiqot" yo'nalishi va boshqa bir qator Yevropa va AQSH modernistik asarlar tadqiqotlarning asosiy qismini jahon urushlaridan so'ng yozilgan asarlar tashkil qilib, ularning ko'pi kapitalistik g'oyalar asosida shakllantirilganligi modern adabiyotning to'liq aksini ko'rishda to'siq bo'lib kelmoqda, nazarimizda.

Modern adabiyotini baholashda yana bir katta maktab — Sovet adabiy maktabining ham o'rni beqiyosdir. Modern adabiyoti tanqidining shakllanish va modern termini haqidagi fikrlarni to'g'ri shakllantirishda bu maktab ahamiyatlidir. Sababi, modern oqimi haqidagi asosiy tamoyillar shakllangan dunyo G'arb va SSSR kabi temir devorli ikki qismdan iborat edi. Dunyoning bir qismi modernizmga kapitalistik qarashlarini aks ettirgani sababli unga homiylik qilgan, ikkinchi tomoni esa kommunistik mafkuraga ziddligi sababli uni asosiy "dushman" deb bilar edi... Sovet davrida adabiyot va barcha san'at jabhalarining kengash tomonidan katta nazoratda bo'lishi, modern adabiyotning Yevropada shakllanayotgan davrda sotsrealizmning tatbiq qilinishi, modernizmning shakllanishi, modern adabiyoti shakllanib borayotgan oqimlarining taqiqqa olinishi bu hududlarda oqimning shakllanishi sun'iy ravishda imkonsizlashtirgandir. Zero, modernizmning markazi inson, alohida shaxs falsafasi tuzumning sotsrealistik mafkuralariga zid edi. Dunyoning barcha mamlakatlarida bo'lganidek Sovet ittifoqi mamlakatlari adabiyotida, xususan o'zbek adabiyotida bilinar-bilinmas iz qoldirgan modernizm, zamonaviy adabiyotda ham ayni shu yo'sinda o'zini aks ettirgan. Modernizm ustidagi bu tazyiq hududda oqimning o'ziga xos ravishda shakllanishiga olib kelgan. Bu davr sovet adabiyotida "kumush davr" deb nomlanib, 1890-yillarda simvolizmning kelib chiqishi bilan

bog'liqdir. Nikolay Berdyayev, Vladimir Mayakovskiylar bilan boshlanib, keyinchalik bu safga Anna Ahmatova, Mixail Zenkeyevich va Georgiy Ivanovlar ham qo'shiladilar. Ularning ijodi modernizmning bir yo'nalishi sifatida (akmeizm) baholanadi. Biroq 1930-yillardagi "Fuqarolar urushi"dan keyin olib borilgan siyosati tufayli oqim namoyondalari xoin nomi bilan qatl etiladi va hali rivojlanib ulgurmay modernizmga barham beriladi. O'zbek adabiyotida esa modernizm izlari Cho'lpon, Oybek, Mirtemir ijodida o'z aksini topadi. Ittifoq tomonidan ularga nisbatan olib borilgan siyosat hammamizga ma'lum. Keltirilgan hodisalardan kelib chiqqan holda ittifoq yemirilgungacha bo'lgan davr adabiy tanqidi modernizm haqidagi qarashlarning ilmiy emas, balki mafkuraviy maqsadlarga yo'naltirilgani kuzatiladi. Sovet tadqiqotchilaridan modernizmning tub ildiziga nazar solingan maqolalarning birida sovet tanqidiy adabiyotini modernizmga bo'lgan subyektiv baholashda Volinskayaning "Modernizm — sovet ittifoqining antikanon adabiyoti sifatida" nomli maqolasi e'tiborimizni jalb etdi [7:172-202]. Unda muallif Sovet tanqidiy adabiyotini ikki davrga bo'lib o'rganadi, birinchi davr 1934-yildagi yozuvchilarning birinchi syezdidagi Gorkiy asr boshi adabiyotini "fikrlar mas'uliyatsizligi" deb tanqid ostiga olgan "tanqidchilar" Vasiliy Ro'zanovni ayyorona fahshni targ'ib qilishda, Artsinbayevni esa qahramon sifatida vertikal yuruvchi shim kiygan echkini tanlaganliklari uchun qoralaydilar. İlk davr tanqidchilari hali-hanuz G'arb modern adabiyotchilari asarlariga teginmagan va hatto Prustni realist deb yurgan davri bo'lsa, ikkinchi davr 1960-1970 yillarni o'z ichiga qamrab olib, unda G'arbda oqim sifatida shakllanib tugab ham ulgurgan modernizmi dushman adabiyoti sifatida qaralgan davr hisoblanadi. Ikkinchi davrda G'arbda modernizm o'z davrini yashab bo'ldi deb postmodernizmga bo'shatib berayotganida Sovet ittifoqida dushman adabiyoti nomi bilan modernizm adabiyoti siyosiy kuchlar tomonidan buyurtma tanqidga olingan edi. Ishning eng qiziq tarafi esa sovet tanqidchilari tuzum tan olgan sotsrealizmga qarshi tomon sifatida modernizmi qo'yib tanqidga olganliklari va barcha munozaralar realizm-modernizm kurashi kun tartibi masalasiga ko'tarilganida edi. Bularning hammasi tarixdan bir parcha deb o'tib ketgan ham bo'lardik-ku, faqat bu fikrlar hozirgi ko'plab tadqiqotchilarda modernizmning asosiy tamoyillari sifatida qabul qilinib, eng yangi tadqiqotlarda ham Sovet davrida yozilgan manbalar asosida olib borilishi ba'zan modern adabiyotning noto'g'ri talqiniga olib kelayotgani, bu borada o'zbek modern tanqidi ham ko'zdan kechirish zaruriyatiga olib keladi. Sababi o'zbek adabiyotida, o'zbek tanqidida, qolaversa oddiy o'zbek o'quvchisida bu oqimga bo'lgan qiziqish va uni tushunishga intilish juda yuqori. O'zbek adabiy muhiti modernizmi istiqlol davrigacha faqat Sovet ittifoqi prizmasidan ko'rib kelgan bo'lsa, istiqlol davriga kelib adabiyotning siyosat bosimidan xoli qilinishi modernizm va bizning oramizdagi temir devordan xalos qildi. Balki, shu sababdan ham o'zbek adabiy tanqidida modern adabiyotining tahliliga oid tadqiqotlar ko'proq istiqlol yillariga to'g'ri keladi. Shunday tadqiqotlardan biri 1993 yilda nashr etilgan T.Jo'rayevning "Jeyms Joys" va bir yildan so'ng chop etilgan "Ong oqimi va tasviriylilik" monografiyasini tilga olishimiz mumkin, keyinchalik "Modernizm jo'n hodisa emas" (O.Sharafiddinov), "Manaviyat, modernizm va absurd" (P.Qodirov), "O'zbek poemachiligida modern izlanishlar" (D.Quvvatova) "Mumtoz adabiyot va modern adabiyot" (H.Boltaboyev), "XX asr modern adabiyoti manzaralari" (M.Xolbekov), "O'zbek modern she'riyati" (A.Saidov), "Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm" (U.Hamdamiyov) singari tadqiqotlarni e'tirof etish joiz. Istiqlol davridagi tadqiqotlarda jahon (asosan G'arb) va o'zbek adabiyotida modern adabiyotining namunalarini tahlili bilan bir qatorda modern adabiyoti tushunchasi, uning tamoyillari va tarixi ustida izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarning aksari modernizmga nisbatan neytral va obyektiv fikrlari bilan ajralib tursa, ba'zi tadqiqotlarda avangard asar namunalarini insoniyatni yerga urushda va asossiz nigilizmda ayblab, bunday g'oyaga ko'r-ko'rona taqlid qilgan zamonaviy o'zbek adiblari tanqid ostiga olingan. Xususan, P.Qodirov o'z maqolasida modernizmga oid J.Joys "Uliss" romanini va T.Rustamning "Kapalaklar o'yini" romanlarini nigilizmda va butun boshlik millat va insoniyatni qoralashda ayblab, adabiyot ma'naviyat ulashishi lozim, degan fikrni oqlaydi [4:12]. Biroq nazarimizda, modern adabiyotning asosiy maqsadi "tarbiya" emasligini va yozuvchi voqelikni ekspressiv-subyektiv shaklda tasvirlashi inobatga olinsa, ushbu asarlarga bunday qat'iy yondashuvning noo'rirligi oydinlashadi. Zero, o'z davrini o'tab bo'lgan Sobiq Ittifoq mafkuralari va u yaratgan subyektiv ilm, bugungi kun o'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga to'siq bo'lishi kerak emas. Bunda bizga adabiyotni o'rganishda faqat bir tomonlama,

bir necha davlatlar bilan cheklanib qolmay jahon tajribasida mavjud butun adabiy jarayonlar va badiiy tanqid maktablarini o'rganish, keng ko'lamli va haqqoniy fikr shakllantirishda yordam beradi. Zero, bugungi yangi badiiy tendensiyalarda jahon adabiy jarayonlar tarixini umumlashtirmay, siyosiy va tarixiy tazyiqlardan xoli o'rganish zaruriyatini belgilamoqda. Bu vaziyatga yana modernistik oqim yuzasidan qaraydigan bo'lsak, Sharq o'lkalariga doimiy ko'prik vazifasini o'tagan Turkiya misolida ko'rish, modernizmning umumiy va global hodisadan bo'lish bilan bir qatorda qanchalik xususiylikka, hududdan-hududga, yozuvchidan-yozuvchiga o'zgarishini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bizdagi g'arblashuv jarayonida Turkiyaning o'rni, o'zbek adabiyotini ham anglashda yordamchi bo'ladi.

Modernistik adabiyotga tabiiy urbanizatsiya jarayoni natijasida kelgan g'arb maktabi, simbolizm endi kurtak yozayotgan, ammo qisqa vaqt ichida dushman adabiyoti o'laroq nomlangan Sovet Ittifoqi modernizmi bilan solishtiradigan bo'lsak, turk modernizmi turk adabiyot tarixida hali ham bahslarga sababchi bo'layotgan va oxirigacha izohlanmagan bir oqim sifatida dolzarbligini saqlab kelmoqda. Buning asosiy sababi sifatida turk adabiyotining siyosiy, ijtimoiy hayoti, tarixi va milliy qadriyatlarini sanab o'tish mumkin. Yuqorida keltirilgan omillar sababli zamonaviy turk adabiyoti G'arb va dunyoning boshqa mamlakatlaridan ajralib turuvchi o'ziga xos modern adabiyotni shakllantira olgan.

Bugungi kunga qadar Turkiyada ko'plab tadqiqotchilar modern adabiyotning kelib chiqishi 70-80 yillarda G'arb modernizmiga bo'lgan qiziqish ortishi va ko'plab mashhur G'arb modernistlarining asarlarini tarjima qilish bilan boshlanadi degan fikrda edilar [10:49]. Faqat oxirgi yillarda modernlashuv, xususan, modern adabiyot ustida amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar natijasida oqim sifatida modernizm turk adabiyotida o'zini Kamolizm bilan boshlangani fikrini yoqlab kelayotgan bo'lsa [8:303-306], bir guruh tadqiqotchilar Kamolizm bu G'arblashuv siyosati uning modernizm bilan aloqasi yo'q, modernizm Holida Adip asarlarida yo'q bo'lganday Guntekin asarlarida ham yo'q, modernizm kurtaklari 70-80 yillardan avvalroq 50-yil avlodida o'zini ko'rsata boshlagan, degan fikrni ilgari suradilar [2:55]. Bu fikrlarning har biri asosli bo'lib, zamonaviy turk adabiyoti 1923-yildan bugungi kungacha turli abadiy bosqich va jarayonlarni boshidan kechirdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Turkiyaning modern adabiyot bilan yuzlashishi va uni qabul qilish jarayoni G'arbdagidan tubdan farq qiladi. Modernlashish jarayoni G'arb va Amerika davlatlarida tabiiy urbanizatsiyalashuv jarayoni natijasida kelib chiqqan bo'lsa, Turkiyada bu ommaviy o'tish natijasida, majburiy ravishda amalga oshirildi. Bu tarixda Kamolizm siyosati bilan bog'liq bo'lib, bu davrda har jabhada G'arbga ergashish kuzatiladi. Albatta, adabiyot sohasi ham bundan mustasno emas. Kamolchilar asosiy kuchini ta'limga qaratgan holatda, yangi yo'nalishlarni darsliklardan boshlab, badiiy asarlarga ta'biq qilinishida homiylik qiladi. Faqat bu o'zgarish modernlashuv emas, balki G'arblashuv jarayoni ekanligini ilgari surgan S.Gumush, qarashlarini quyidagicha izohlaydi: Modern adabiyot shahar adabiyoti bo'lganligi va turk xalqi u davrda shaharlashib ulgurmagan, modern adabiyotning inson ichki dunyosiga qaratilishi hali yot tushunchaligi, ya'ni adabiyot arxaiik til ustiga qurila olmasligi (til siyosati amalga oshirilmagan davr), jamiyatning yangiliklarga munosabati, hukumat yangi yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlashda, hali ham adabiyotni devon adabiyoti bosimidan xoli qilmaganligi kabi asosli sabablarni ko'rsatgan holda, bu davr adabiyoti faqatgina modern adabiyoti uchun tamal toshi vazifasini o'taganini aytib o'tadi [2:55].

Darhaqiqat, jumhuriyatning ilk davri namoyondalari zamonaviy turk adabiyotining har qancha klassik namoyondalari hisoblansa-da, ularning tur va janr jihatdan yangi ko'rinishlarini va mazmun jihatdan ularga qadar hikoya qilinmagan inson taqdiri, uning fojiasi, psixologiyasi kabi mavzularning yoritilishi modern adabiyotga qo'yilgan qadam sifatida qabul qilinishi o'rinli bo'ladi. Xuddi o'zbek adabiyotida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida Zebi xarakterida qahramon ichki dunyosi qanday yoritilgan bo'lsa, Guntekinning bir qator romanlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ruhiyatini modern adabiyotning ko'rinishlari sifatida tilga olinishimiz mumkin. Modern adabiyotning o'z-o'zidan shakllanib qolmaganligini inobatga oladigan bo'lsak, ilk modernistik roman sifatida tan olingan Ahmad Hamdi Tanpinarning "Huzur" romani o'zidan oldingi asarlarning ta'sirisiz shakllanib qolgan degan qarashlarning o'ransiz ekanligini asoslaydi. 30-yillarda g'arb adabiyoti bilan tanisha boshlagan turk adabiyoti jahon urushlari, Turkiyaning ichki siyosiy vaziyatlar

ta'siri davr yoshlarini ajralib chiqishga undaydi. Bu davrda fransuz yozuvchilaridan ilhomlangan holda Yusuf Otilgan, Said Foyiq, Vusat O. Bener singari modern adabiyotning ilk uchqunlari o'zini ko'rsata boshladi, faqat bizdagi badiiy tanqidning rivojlanmaganligi ularni ko'rishimizga to'sqinlik qiladi, — deydi S.Gumush [2:79]. Fikrimizcha, turk adabiyotidagi modernizm ustidagi bu tortishuvlar xuddi o'zbek adabiyotidagi singari an'anaviylikka bo'lgan uzulmas bog'larning mavjudligi va diniy ijtimoiy sabablarga borib taqaladi. Devon adabiyotining uzun tarixi, ming yillik urf-odatlar va qadriyatlar bir yozuvchining men modernistman deyishiga yoki ushbu yo'nalishda erkin ijod qilishidan tutib turadi. Hatto, modern yozuvchilikka iddao qilgan davr yozuvchilarining asarlari ham yevropalik modernistlar bilan solishtirilsa modern adabiyotga begonadek tuyuladi. Hatto, Kafkadan ilhomlanib yo'l oldim degan Ferid Edgu asarlari ham modern adabiyotning janriy talablariga javob bersa-da, o'zgacha xususiyatga ega. Uning hikoyalari muallif turk bo'lgani uchun ham, e'tiqodi, qadriyatlar sharqona bo'lganligi uchun ham hech bir zamon Kafka ruhiyati bo'la olmaydi. Turk modernizmining asosini va o'zgachaligini ham shu xususiyat tashkil qiladi, nazarimizda. Ushbu xususiyatni saqlab tutilgan yozuvchigina modernistik adabiyotda o'z o'rnini topa oladi. Modernistik adabiyotda bevosita inson ruhiyati aksi bo'lganligi sababli, ko'r-ko'rona taqlid, asarni kulgili va tushunarsiz bir taqlid holatiga olib keladi. Sababi, butun dunyoda mashhur bo'lgan deyarli bacha modernistik asarlar boshqa mamlakat, madaniyat va e'tiqod vakillari uchun sirli va tushunarsiz, hali kashf qilinmagan makon kabi o'ziga jalb qilib turadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, modernizm adabiyot nuqtai nazaridan inson ruhiyatidir. Uning asosini o'zgachalik, bir maromdagi rejali hayotdan siljish va muallifning ichki dunyosini tashkil qilar ekan, uni umumlashtirish va bir qolipga solib o'rganish mavjud chalkashliklarni keltirib chiqaraveradi. Izlanishlar jarayonida zamonaviy o'zbek adabiyotida ham, turk adabiyotida ham buning guvohi bo'ldik. Ma'lum bir asarni o'rganishda modern asar qatoriga kiritish uchun u realizm tamoyillarini tubdan inkor etishi, g'arblik mashhur asarlarga o'xshashi, tushkunlik va tarkidunyolik kabi elementlar mavjudligiga qarab belgilansa, bu bahslar yakunlanmaydi. Agar modern adabiyot shakl va janr jihatidan bergan erkinligi va ijodkorning menini rag'batlantirishi jihatidan baholansa, bu janr adabiyot va til uchun mislsiz imkoniyatlar o'chog'i bo'la oladi. Markazi inson ruhiyati bo'lganligi uchun ham, bu yo'nalishdan umumjahon tarix va xususiyat yaratish imkonsiz, hatto bir millat adabiyoti uchun qat'iy chegaralar qo'yish mushkul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Басс И. Жизнь и время Гертруды Стайн. – М.: Аграф, 2013.
2. Gümüş S. Modernizm ve Postmodernizm. Istanbul: Can Yayınları, 2019.
3. Пруст М. Против Сент-Бева. Статьи и эссе. М.: ЧеРо; 1999.
4. Qodirov P. Ma'naviyat, modernizm, absurd. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2012/12 son.
5. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr, 2010.
6. Умберто Эко. Шесть прогулок в литературных лесах. М: Симпозиум; 2007.
7. Волынская А. Модернизм как советский антиканон: литературные дебаты 1960-1970-х годов. ЛОГОС.ТОМ27.№6.2017.
8. Зверев. А. М. Модернизм в литературе США. Формирование, эволюция, кризис. М.: Наука. 1979.
9. Özdemir A. Ayrımcılığın Türk Çalışma Hayatına Yansımalar. Nobel Akadem Yayıncılık. Ankara, 2011.
10. Çeşitli İ., Balçı Y., Kolaç E. Cumhuriyet Dönemi Türk Nesri. Anadolu Üniversitesi, Eskişehir, 2012.

UDC 82'25

UNVEILING THE LANGUAGE SECRETS: PARAPHRASING UZBEK TEXTS WITH SOFTWARE (SCIENTIFIC & JOURNALISTIC STYLES)

Z. M. Khayatova, PhD, Doctoral (DSc) Student, Tashkent State of Uzbek Language and Literature University, Tashkent

Annotatsiya. Bu maqola, ilmiy va jurnalistik yozuvlarning farq qiluvchi tomonlariga e'tibor qaratilib, o'zbek matnlarini dasturiy vositalar yordamida qayta ifodalashning tilshunoslik asoslariga kirish demakdir. Shuningdek, Tabiiy Til Ishlash (NLP) va bu sohada qanday yangiliklarni keltirib chiqarishni isloh etibgina qolmay, qanday chegaralar mavjudligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: NLP, agglyutinativ til oilasi, qayta ifodalash, ilmiy, jurnalistik, tuzilma.

Аннотация. Эта статья затрагивает лингвистические основы перефразирования